



Darsga yakun yasash:

Refleksiya mashqi. Fikrni to'ldiring:

Men bilib oldim.

Biz ... bajardik.

49-mavzu: [sh] tovushi. Sh sh harfi

Dars maqsadi:

- [sh] tovushining talaffuzi va Sh sh harf birikmasining bosma shakli bilan tanishadilar;
- [sh] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [sh] harf birikmasining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [sh] tovushi ishtirok etgan so`z va gaplarni o`qishni o'rganadilar.

Tayanch so'zlar: sharq, g`arb, [sh] tovushi

Didaktik materiallar: rasmlli kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Kim biladi mashqi: O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan tovushlarni aytadi.

O'quvchilar shi tovushlarni ifodalovchi harflarni yozadilar. Kim birinchi yozib bo'lsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

-Bugun siz bilan "Kim biladi" mashqini o'tkazamiz. Men aytgan tovushlarni kim birinchi bo`lib qog'ozga yozib ko'rsatsa shu o'quvchi g'olib bo'ladi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi doskaga shaftoli, sholg'om rasmlarini qo'yadi. O'quvchilardan bu rasmni ifodalovchi so'zlarda qanday o'xshash va farqli tomoni borligini topishni so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmni ifodalovchi so'zlarni ayting?*

- *Bu so'zlar orasida qandau farq bor ?*
- *So'zlar orasidagi o'xshashlik nimada ?*
- *Shu tovush bilan boshlanadigan yana qanday so'zlarni bilasiz?*
Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2. Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O'qituvchi [sh] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

Sh tovushini talaffuzida lablar aylana shaklida va oldinga bir oz chiqqan, tishlar bir- biriga yaqinlashgan, tilning keng uchi qattiq tanlayning oldingi qirrasiga ko'tarilgan bo'lib, ular oralig'ida tirkish hosil bo'ladi, yumshoq tanglay ko'tarilgan va tomoqning orqa devorga siqilgan bo'lib, burun yo'llarini yopib qo'yadi. Buning natijasida havo oqimi og'iz orqali o'tib ketadi, tovush bog'lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslik

49-dars [sh] tovushi Shsh harflar birikmasi



[sh] tovushi – undosh tovush. Bir-biriga yaqinlashgan tishlar orasidan sing alib o'tayotgan havo tovushni hosil qildi.

"S" do'stlashdi "H" bilan, Ko'ring shodligin biram. Shaxmat, shashka so'zlarida Ajralmas ular hech ham.

sh	a	o	i	u	ö	e
sham	sha-mol	sha-kar	shov-qin	Shah-lo	Shah-zod	she
shom	sho-yi	shi	shu	sho'	Shah-zod	
shim	shi-mol	shi-nam		Shuh-rat		

Qish

O'i-ka-miz-ga qish ki-rib kel-di. Qish-da namma yop op-paq qor bi-lan qop-la-na-di. Bo-la-lar qish-ki o'yin-lar-ni in-liq-lik bi-lan ku-la-di-lar. Maydon-dan bo-la-lar sho-don kui-gi-si e-shi-ti-la-di.



Darslikdan Sh sh harf birikmasining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

“S” do'stlashdi “H” bilan,

Ko'ring shodligin biram.

Shaxmat, shashka so'zlarida

Ajralmas ular hech ham.

• *She'rda harflar haqida nima deyilgan?*

• *Sh harfi bilan qanday so'zlar boshlangan ?*

• *Sh harfbirikmasi deganda nimani tushundingiz?*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'irlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

O'qituvchi doskaga qish fasli va qishki o'yinlar tasvirlangan rasmlarni iladi.

Rasmlar asosida suhbat o'tkazish tavsiya etiladi.

“Qish” matni o'qitiladi.